

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIIY MUAMMOLARINING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ESSENCE OF LEGAL NORMS RELATED TO THE LEGAL SUPPORT OF ENVIRONMENTAL AUDIT

Dzhiyenbayev Bakhadir Ospanovich

National Guard of the Republic of Uzbekistan
Regional Training Center of the Republic of Karakalpakstan
Senior Lecturer of the "Legal Sciences" Cycle

Abstract. This article describes the legal support for environmental audits, the improvement of the entire regulatory framework for environmental audits, and the specific aspects of the legal regulation mechanism, as well as proposals and recommendations on this matter.

Keywords: Constitution, code, environmental audit, environmental problems, environmental protection, audit activity.

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya
Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy o'quv markazi
"Huquqiy fanlar" sikli katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada, ekologik auditni huquqiy ta'minlash va ekologik auditning barcha me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish hamda huquqiy tartibga solish mexanizmining o'ziga xos jihatlari, shuningdek ushbu masalada taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, kodeks, tabiat, ekologik audit, ekologik muammolar, atrof muhit, muhofaza qilish, auditorlik faoliyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N47>

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, atmosfera havosini yaxshilash, yashil hududlarni ko'paytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Atrof-muhitni boshqarish tizimi yuksak ekologik imkoniyatlarga ega bo'lib, u ekologik huquqning an'anaviy mexanizmlari bilan uyg'un holda qulay va sog'lom tabiiy muhitni ta'minlashga xizmat qiladigan muhim vosita sanaladi.

Hozirgi kunda sanoat sohalarida jismonan va ma'nan eskirgan texnika va uskunalardan foydalanish, ekologik jihatdan zararli hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalarning qo'llanilishi, shuningdek, korxonalarning ekologik toza va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli moliyaviy imkoniyatga ega emasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xususan davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yil 1-dekabr kuni "Ekologik barqarorlik, qish mavsumiga tayyorgarlik va yong'in xavfsizligi masalalari"ga bag'ishlangan yig'ilishida "Bu atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatyapti va aholi e'tirozlariga sabab bo'lyapti. Shu bois, maishiy

chiqindi poligonlarini ekologik xavfsiz hududga aylantirish zarur. Birinchi navbatda, odamlarning sohadan roziligiga erishishimiz kerak. Bu masalaga faqat chiqindini boshqarish emas, balki sanoat, energetika, ekologik madaniyat bilan uzviy bog'liq yo'nalish sifatida yondashish lozim"[1.], – deya ta'kidlangani bejiz emas.

Qulay atrof tabiiy muhitga erishish va bu tizimni boshqarishni joriy etish va ekologik auditni samarali tashkiliy chora-tadbirlar tizimi orqali katta moliyaviy xarajatlarni qo'llamasdan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish faoliyatini yaxshilashga, tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ekologik auditning barcha me'yoriy-huquqiy bazasini me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ikkita asosiy guruhiga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga ekologik audit va u bilan bevosita bog'liq faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, ikkinchi guruhga normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish qoidalari va talablarini kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya[1.]si eng yuqori yuridik kuchga ega ekanligini va mamlakatimiz butun hududida to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda, qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlariga zid bo'lmasligi, davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va ularning birlashmalari asosiy Qonunga amal qilishi lozim. Barcha yuridik institutlar, shu jumladan ekologik audit uchun ham mamlakatimiz huquqiy demokratik davlat ekanligini va inson, uning huquq va erkinliklari eng yuqori qadriyat ekanligini belgilaydigan normalari o'z aksini topgan. Inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini tan olish, ularga rioya etish va himoya qilish davlatning burchidir. Bu normalar barcha mustahkamlangan huquq va erkinliklarni amalga oshirish kafolati hisoblanadi.

Masalan, ekologik audit faoliyatini amalga oshirish huquqi davlat organlari tomonidan ta'minlanishi kerak. Davlat ekologik audit o'tkazishda inson huquqlarini hurmat qilishi va himoya qilishi kerak. Jarayonlar xilma-xil bo'lishi mumkin, shu bois, ekologik auditorlik xizmatlarini litsenziyalash (bu ekologik auditning to'g'ri sifati uchun zarur shartlardan biri) yoki ekologik auditor va boshqa shaxslarning inson huquqlari va erkinliklarini buzgan boshqa shaxslar xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatini beradi.

Mehnat shartnomalari bo'yicha ishlaydigan ekologik auditorlar uchun ham bir qancha qonunchilik qoidalari ham qo'llaniladi. Masalan: Har kim o'z mehnat qobiliyatini erkin tasarruf etish, faoliyat turi va kasbini tanlash huquqiga ega, majburiy mehnat taqiqlanadi va hokazo.

Tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan ekologik auditni amalga oshirishning huquqiy asosi Fuqarolik Kodeksi[2.]dir. Ekologik audit buyurtmachisi va ekologik auditor o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma asosida quriladi. Ekologik audit o'tkazish va tegishli ekologik audit xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzish to'g'risidagi umumiy qoidalarga muvofiq tuziladi. Ushbu shartnomaning shakli bitimlar shakli bo'yicha umumiy qoidalar bilan tartibga solinadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 364-366-moddalari). Ekologik audit o'tkazish va tegishli ekologik audit xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning huquqiy tabiati Fuqarolik Kodeksining 27-bobi bilan tartibga solingan haq evaziga xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi ham ushbu munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bir tomondan, u soliqlarni to'lash majburiyatini, shu jumladan ekologik auditorlar tomonidan, ikkinchi tomondan, ekologik audit davomida aniqlangan normalar-mezonlarning, muvofiqligi yoki nomuvofiqligini belgilaydi. Masalan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash (63-bob), yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash (64-bob)[3.] va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi[4.] ning normalari mehnat shartnomasi bo'yicha ishlaydigan ekologik auditorlarga nisbatan qo'llaniladi. Ko'rib chiqilayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ekologik auditning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutmagan holda, ekologik auditorlik faoliyatini umumiy asosda tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»[5.]gi Qonunida atrof tabiiy muhit monitoringi xususida mazmunlar bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-677-son Qonuni[6.]ning normalarini ekologik audit bo'yicha kengaytirish bo'yicha olimlarning pozitsiyasi noaniq. Sababi mazkur qonunchilikda aynan ekologik audit bo'yicha hech qanday tushunchalar va qoidalar mavjud emas.

Normativ-huquqiy hujjatlarning biri qonun osti hujjatlari hisoblanadi. Bu mamlakatimiz rahbarining ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimini yaratishda, shu jumladan tabiatni boshqarish va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida namoyon bo'ladi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-son Farmoni[7.]da audit bo'yicha mazmunlar ham o'z aksini topgan. Xususan, davlat va munitsipal korxonalarni xususiylashtirish jarayonida ekologik auditni huquqiy tartibga solish atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda tarmoq vazirliklari va idoralari fikrini hisobga olgan holda mulkka oid davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilgan edi.

Keyingi qonun osti hujjatlaridan hukumatining hujjatlari bilan tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasiga muvofiq, hukumatimiz qarorlar va farmoyishlar chiqaradi va ularning bajarilishini ta'minlaydi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhit va uni muhofaza qilishda korxonalarning ekologik auditini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi tadbirkorlikni va ixtiyoriy sertifikatlashni rivojlantirishga ko'maklashish vazifasi belgilanishi lozimdir.

Mamlakatimizda ekologik auditni amalga oshirish tartibi hamda unga oid boshqa muhim masalalarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar hozircha to'liq shakllantirilmagan. Bu borada qonun osti hujjatlari, xususan vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi tartiblarga ko'ra, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'z vakolatlari doirasida farmonlar, farmoyishlar va qarorlar qabul qiladi hamda ularni amalga oshirish uchun normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqadi.

Ijro etuvchi organlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar qaror, buyruq, ko'rsatma, qoida va nizomlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Biroq bugungi kunda ekologik audit masalasiga doir idoraviy hujjatlarning mavjudligi haqida aniq va to'liq ma'lumotlar yetarli emas.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining ekologik audit sohasidagi faoliyati shu vaqtga qadar to'liq ishlab chiqilmagan.

Keyingi vaqtlarda atrof tabiiy muhit bilan bevosita bog'liq bo'lgan standartlarga kelsak, ular tavsiyaviy ahamiyatga ega va faqat tegishli majburiyatlarni o'z zimmlariga olgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik audit to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida ekologik audit standartlari ekologik auditni o'tkazish, turdosh xizmatlar ko'rsatish va ekologik auditorlar ishining sifatini nazorat qilish tizimini tashkil etish tartibini belgilaydi. Milliy ekologik audit standartlari ekologik auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir yagona talablarni belgilaydi. Ekologik auditorlik tashkilotlari ekologik auditni o'tkazish chog'ida shartnomaga muvofiq xalqaro ekologik audit standartlarini qo'llashi mumkin[8.], deya belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrdagi "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'RQ-800-son Qonuni[9.]da "standart" "milliy standart" va "xalqaro standart" tushunchalariga ta'rif berilgan, unga ko'ra, standart faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga taalluqli bo'lgan, umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni, umumiy prinsiplarni yoki tavsiflarni belgilaydigan hamda muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan hujjat ekanligi, milliy standart esa, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar instituti tomonidan qabul qilingan hamda keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan standart ekanligi hamda xalqaro (mintaqaviy) standart — standartlashtirish bo'yicha xalqaro yoki mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va keng jamoatchilik doirasi uchun ochiq bo'lgan standart ekanligi ta'kidlangan.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda standartlashtirish asosan uch yo'nalishda olib boriladi: mahsulot sifati, atrof-muhitni boshqarish tizimlari hamda ekologik audit. Ushbu standartlar tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, auditning asosiy tamoyillari, audit dasturlarini boshqarish, sifat menejmenti va ekologik menejment tizimlarini auditdan o'tkazish, shuningdek, auditorlarning mazkur auditlarni amalga oshirish vakolatlariga doir yo'riqnomalarni belgilaydi.

Mazkur standartlar sifat va ekologik menejment tizimlarining ichki hamda tashqi auditini o'tkazuvchi yoki audit dasturlarini boshqaruvchi tashkilotlar uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, huquq manbalari tarkibiga tashkilotlarning ichki normativ hujjatlari ham kiradi. Ekologik audit sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuqori darajadagi huquqiy hujjatlar yetarli bo'lmagan sharoitda, bunday normativ aktlar muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarni vertikal ravishda ko'rib chiqishda mamlakatimiz ekologik audit subyektlarining ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlariga to'xtalib o'tish lozim. Ekologik audit sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni mavjud subyektlar qabul qilish huquqiga egami degan savol, bizning fikrimizcha, ijobiy hal qilinishi kerak. Asosiy Qonunimizning 115-moddasi 4-bandiga muvofiq, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi, deb ko'rsatilgan. Bunda esa ma'muriy organlarning o'rni beqiyosdir. Tabiatdan foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizligi sohasida birgalikda harakat qilinishi lozim. Ekologik audit sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik va qoidalar mavjud bo'lmaganda, ko'rib chiqilayotgan faoliyat sohasida o'zlarining normativ-

huquqiy hujjatlarini qabul qilish huquqiga egaligini yana bir marotaba ta'kidlash lozim. Bu esa asosiy Qonunga mos bo'lishi kerak.

Huquqiy tartibga solish jarayonida aniq ravishda uchta asosiy bosqich ajratiladi: a) huquq normalarining shakllanishi va amal qilish bosqichi, huquqiy tizimga kiritilgan normalar jamoat munosabatlari ishtirokchilarining xulq-atvorini umumiy tartibga solishi, yo'naltirishi, ular uchun u yoki bu huquqiy rejimni o'rnatishi bilan tavsiflanadi; b) huquq va majburiyatlarning (huquqiy munosabatlarning) paydo bo'lish bosqichi, huquqiy normalar asosida, ko'zda tutilgan holatlar (yuridik faktlar) mavjud bo'lganda, muayyan subyektlar huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi; v) huquq va majburiyatlarni ro'yobga chiqarish bosqichi, huquqiy normalarda belgilab qo'yilgan, keyin esa ushbu subyektlar uchun xulq-atvorning aniq chora-tadbirlarida (huquq va majburiyatlarda) ifodalangan xatti-harakatlar dasturlari amaliyotga tatbiq etilishi bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, ko'pincha huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishidan oldin yoki ularning amalga oshirilishini ta'minlash uchun mo'ljallangan qo'shimcha, ixtiyoriy, to'rtinchi bosqichga ehtiyoj seziladi. Bu huquqni qo'llash bosqichi bo'lib, vakolatli organ (birinchi navbatda sud) tomonidan vakolatli shaxs aktini chiqarishi bilan tavsiflanadi[10. – B 20.].

I.A.Ilin o'z asarlarida, «Huquqiy ongsiz odam yo'q, lekin huquqiy ongni e'tibordan chetda qoldiradigan, xunuk va hatto yovvoyi huquqiy ongga ega bo'lgan odamlar ko'p... Biroq, insonning aqliy va ma'naviy tuzilishi noto'g'ri bo'lib, zaif, buzuq, jinoiy huquqiy ongli bo'lsa-da, mazmuni va motivlari yolg'on va yomon bo'lsa ham huquqiy ong bo'lib qoladi»[11. 209-222-betlar.].

Bizning fikrimizcha, ekologik auditning huquqiy tartibga solish mexanizmini samarali amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlarining ushbu ekologik huquq institutiga bo'lgan qiziqishlarini mos ravishda o'zgartirmasdan samarali amalga oshirish mumkin emas. Ular uchun har qanday yirik korxona ekologik siyosatining istiqbolli va o'ta muhim tarkibiy qismi bo'lgan ixtiyoriy ekologik auditdan foydalanishning afzalliklarini asoslab berish va qonuniy jihatdan mustahkamlash zarur ahamiyat kasb etishi lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ekologik biznes madaniyati va biznes etikasini, masalan, mazkur soha mutaxassislari va xalqaro darajadagi mutaxassislarni jalb qilgan holda atrof tabiiy muhit auditori bo'yicha turli tushuntirish anjumanlarini amalga oshirish orqali yaxshilashga harakat qilish kerak.

Xulosa. Ekologik audit tartiblari sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshiradi. Ekologik audit korxona faoliyatining turli sohalarini, jumladan rejalashtirish, tadqiqot, mahsulot va jarayonlarni ishlab chiqish, marketing, sotish, sotib olish, qadoqlash, ishlab chiqarish texnologiyasi, moliya, asosiy vositalar va boshqalarni qamrab oladi. Ko'rsatib o'tilgan ekologik audit shakllari o'tkazilgan va rejalashtirilgan ekologik tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Sanoat korxonasida amalga oshirilgan ekologik auditning yakuniy natijasi korxonada tabiatni muhofaza qilishga doir (ekologik) faoliyatning holatini aks ettiruvchi auditorlik xulosasi hisoblanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq ekologik auditning asosiy vazifasi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining atrof-muhitga ko'rsatadigan ekologik ta'sirini baholash va tahlil etishdan iboratdir. Shuningdek, mazkur audit faoliyat turining amaldagi yer, suv, o'rmon hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid qonunchilik, ekologik me'yoriy hujjatlar, standart va qoidalarga muvofiqligini aniqlashga qaratiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish

jarayonining ekologik xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlarini belgilash va atrof-muhitni muhofaza qilishga doir faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, suv resurslariga oid ekologik auditning maqsadi, korxona yoki tashkilotning ekologik oqibatlarining suv resurslariga ta'sirini baholash va faoliyatning amaldagi suv va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga muvofiqligini belgilash hamda ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlarida o'tkazilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/8722>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-may (yangi tahrirda) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martdagi Fuqarolik Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son // www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 30-dekabrda Soliq kodeksi (yangi tahriri) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktabrdagi Mehnat kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda O'RQ-754-XII-son "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi* // www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevralda O'RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
9. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martda O'RQ-678-son "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
10. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrda O'RQ-800-son "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.
11. Алексеев С.С. Общая теория права в 2-х томах Т.2 -М.: Юридическая литература.- 1982.- С.20
12. Ильин И.Л. О сущности правосознания. /Подготовка текста и вступительная статья И. Н. Смирнова. — М.: «Рарогъ», 1993. – С 209-222.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).